

## SHAXSDA HAYOTIY STRATEGIYALARNING SHAKLLANISHI PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA O`RGANILISHI

Zaripova Farangiz Anvar qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7195654>

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada shaxs va uning hayotiy strategiyalarini shakllanishida psixologik xususiyatlar, hamda uning muammo sifatida o'rganilishini ilmiy ahamiyatga naqadar ega ekanligini va shu bilan bir qatorda uning mohiyatini batafsil yoritdik.

**Kalit so'zlar:** strategiya adaptatsiya, o'spirin, akmesi, auditoriya, individual, shaxs, karyera, psixika.

## ТЕКСТ НАУЧНОЙ РАБОТЫ НА ТЕМУ «ИЗУЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЖИЗНЕННЫХ СТРАТЕГИЙ ЛИЧНОСТИ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПРОБЛЕМЫ»

**Аннотация.** В данной статье мы подробно разъяснили научную значимость психологических особенностей в формировании человека и его жизненных стратегий, а также научную значимость изучения ее как проблемы, а также ее сущность.

**Ключевые слова:** стратегия адаптации, подросток, взрослый, аудитория, личность, личность, карьера, психика.

## STUDYING THE FORMATION OF PERSONAL LIFE STRATEGIES AS A PSYCHOLOGICAL PROBLEM

**Abstract.** In this article, we explained in detail the scientific significance of psychological characteristics in the formation of a person and his life strategies, as well as the scientific importance of studying it as a problem, as well as its essence.

**Key words:** strategy adaptation, adolescent, adult, audience, individual, person, career, psyche.

### KIRISH

Shaxsda hayotiy strategiyalar odamzod va jamiyat haqidagi bir qator fanlar bo'lmish psixologiya, akmeologiya, jamiyatshunoslik, antropologiya madaniyati, shuningdek, falsafa fanlari tadqiqotlarining bevosita va bilvosita mavzusi hisoblanadi. Lekin psixologiya yo'nalishidagi ilmiy va ilmiy ommabop nashrlarning ortib borishiga qaramasdan shaxsning hayotiy strategiyalari muammolariga tegishli ishlar unchalik ko'p emas. Zamonaviy talabga javob beradigan va o'spirin auditoriyasini kengaytiradigan bir qancha ilmiy materiallarni internet tarmog'idagi saytlaridagi tahrirlarni ta'kidlash mumkin. Shaxsning hayotiy strategiyalari muammolari zamonaviy tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga jalb qiladi. O'zining aktualligi bilan bir qatorda qiziqarli ilmiy ahamiyatiga ega ekanligi va bir vaqtning o'zida o'rganilmagan qirralarining ko'pligiga ega.

Hayotning eng murakkab shakli inson hayotidir. U inson ruhiyati, ongi, tafakkuri bilan chambarchas bog'langan. Har bir odamga bir martagina hayot kechirish imkoniyati berilgan. Insonning qadr-qimmatini shu hayotni qanday o'tkazganligi bilan o'lchanadi. Odamning tabiati va hayoti u yashayotgan jamiyatdagi ijtimoiy muhitga ham bog'liq, barqaror jamiyatda insonlar sarmazmun hayot kechirishadi, notinch davrda esa umr samarasiz o'tadi. Demak, jamiyatimiz qanchalik barqaror va farovon bo'lsa, unda yashaydigan insonlarning, kelgusi avlodlarimizning hayoti ham shunchalik baxtli va farovon bo'ladi. Hayotning vujudga kelishi va mohiyati haqida hanuzgacha olimlar bir nuqtai nazarga kelishmagan. Har bir insonning hayoti takrorlanmas va

o'ziga xosdir. Masalan, stanokning bir detali o'rniga boshqa detalni qo'yish mumkin. Yoki bir ishchining o'rniga boshqa ishchini qo'yish bilan stanok to'xtab qolmaydi. Ammo har bir odam takrorlanmas va o'z o'rnida qadrli, insonni, uning hayotini qadrlash muhim ijtimoiy vazifadir. Insonning yaxshi hayot kechirishi, bir tomondan, u yashayotgan jamiyatga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, tabiiy muhitga bog'liq. Butun tarixiy taraqqiyot davomida inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabat takomillashib borgan. Inson tabiiy muhitsu, suv, havo, quyosh va tuproqsiz yashay olmaydi. Bu unsurlar uning tirikligini ta'minlaydi. Bunday qulay sharoit inson uchun faqat Yer sharida mavjuddir. Yerning hayot tarqalgan qismi Biosfera deb ataladi. Biosfera tirik organizmlarning hayot kechirish muhitidir. Agar Yer shari Quyoshga yaqinroq joylashganda, Yer yuzasidagi harorat ko'tarilib ketgan bo'lar edi va oqibatda, namlik, suv yo'qolar edi. Agar Quyoshdan uzoqda joylashganida, Yer yuzasidagi harorat pasayib, hamma joy mangu muzlik bilan qoplanar edi. Xullas, har ikkala holatda ham Yer yuzasida hayotning paydo bo'lishiga imkoniyat yo'qolgan bo'lardi. Agar Quyosh tizimi galaktika markaziga yanada yaqinroq joylashganda edi, Yer yuzasida gravitatsiya ta'sirida narsalarning vazni og'irlashib, insondek murakkab jonzotni, balki, umuman, hayotning paydo bo'lishiga sharoit bo'lmagan bo'lar edi. Aksincha, Quyosh tizimi galaktikamiz markazidan hozirgiga nisbatan chetda joylashganda ham, gravitatsiya kuchining zaifligi ayrim ximiyaviy va biologik jarayonlarning ro'y berishiga xalaqit bergan bo'lar edi. Buning oqibatida Yer yuzasida hayot paydo bo'lmas edi. Demak, inson o'zi uchun eng qulay bo'lgan joyda yashaydi. Insonning tabiiy muhitga bo'lgan munosabatlari tizimi uning hayot haqidagi tasavvurlarini tarkib topishi bilan belgilanadi.

## **TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI**

Inson ham ichki ham tashqi tomondan go'zal bo'lsagina haqiqiy kamolotga erishish mumkin deydi. U ozodlik va orastalikni oliyanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur bo'lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega bo'lishi zarur deydi. "Mineralogiya" asarida bu fikrni quyidagicha ifodalaydi. "Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir; o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga ham asta-sekin axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan ishlatishlarni bartaraf etishga qodirdir".

Shaxning hayotiy strategiyalarini keng va tor tushunchada aniqlanishi (karyera va ta'lim).

Hayotiy (shuningdek karyera va ta'limiy) strategiyalar.

Professional guruh yoki alohida ommaviy hayotiy strategiyalar (yoshlar, davlat yoki hukumat odamlari va hokazo)

Individual shaxs strategiyalarning empirik tadqiqot metodlari va metodikalari.

Shaxs hayotiy strategiyalarni aniqlashdagi muammolar.

Adabiyotda bir xil tushunchaga ega bo'lgan yoki ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan bir qancha turli tushunchalar bor (hayot ssenariysi, hayot hikoyasi, hayot yo'li, hayotiy reja, hayot tarzi, hayot dasturi, hayot istiqboli va h.) bu bilan bog'liq tahlil ko'p tomonlamaligi va boshqalar.

Shaxs rivojlanishida hayotiy strategiyalar bilan bir qatorda uning hayot tarzini olib borishi ham rol o'ynaydi (shakl, tartib, hayot stili), hayotiy voqelarni anglash usullari (hayotiy pozitsiyasi va chizig'i) hayotini tasvirlash usullari (tarixi, biografiyasi) va hayotni qurish ramziy usullari (hayot rejasi va ssenariysi).

Shaxsning hayotiy yo'lini o'rganuvchi psixologlar E.Bern tomonidan ishlab chiqilgan ssenariyli yondashuvga tez-tez murojaat qilishadi, ssenariy asosida "ongsiz hayotiy reja"

tushuniladi, qaysiki, bolalikda tuziladi, ota-ona tomonidan mustahkamlanadi va hayot yo'lini tanlashda hodisalar rivoji bilan o'sadi. Va oqlanadi, hayotiy ssenariy ongsizlik xarakteri va kelib chiqishi va mazmunining sun'iyliigi bilan hayotiy rejadan farq qiladi. Quyidagi kundalik tipik vaziyatlarda ishlatiladigan bir qancha ssenariylarni E.Bern ajratadi: "hech qachon" "har doim" "...dan keyin" "...dan oldin" "yana va yana".

## XULOSA

"Hayot strategiyasi" tushunchasini o'rniga E.I.Golovoixa "hayot istiqboli" tushunchasini qo'llaydi va uni oxirgi so'zi dag'al emas, hayotiy yo'l kelajagini rasmiylashtirish bilan izohlaydi. "Hayot istiqbolini ta'kidlaydi – u inson hayotini individual mazmun va ijtimoiy qiymat, murakkab qarama-qarshi aloqalarni va kutilayotgan hodisalarni dasturlash bilan bog'lanadigan bir butun manzara sifatida ko'rib chiqish zarur".

Hayot strategiyasi tushunchasi mohiyati asoschisi K.A.Abulxanova-Slavskayaning "Hayot strategiyasi" nomli ishi hisoblanadi. U barcha zamonaviy ishlab chiqishning asosi bo'lib xizmat qildi. Adib hayot strategiyasini shaxsning hayot talablariga o'zining individual birikish qobiliyati sifatida ko'rib chiqadi. Keng ma'noda hayot strategiyasi (boshqa ko'plab hayot taktikalaridan farqli), deydi K.A.Abulxanova-Slavskaya, bu turli

ndashuvidir.

Tor ma'noda esa bu hayotiy ziddiyatlarni aniq hayotiy yechimini ishlab chiqib yengishdir

## REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т., Ўзбекистон, 2016. –Б.14.
2. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Т.: ToshDU, 2002. В. 62.
3. Davletshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya. Т, 2002
4. Ergashev P.S. Muloqot psixologiyasi. Т-2003. 16 b
5. Fayzullayeva N.S., Akramova F.A. Pedagogika va psixologiya // o'quv qullanma. – Toshkent: TDIU, 2011. 291 b.
6. G'oziyev E.G' Psixologiya. Т-1994. –258 b.
7. G'oziyev E.G'. "Psixologiya metodologiyasi" Т, 2013 y.
8. G'oziyev E.G'. "Psixologiya muammolar" Т, 1999.
9. G'oziyev E.G'. "Umumiy psixologiya" Т, 2010 y.
10. Jabborov A.M. O'qituvchi etnopsixologiyasi Qarshi, 2015.
11. Muxamedova D.G., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. "Umumiy psixologiya Toshkent 2018 y.
12. Muxamedova D.G., Salomova G.Sh. "Psixologik tadqiqotlar ma'lumotlarni qayta ishlash metodlari va texnologiyalari" Toshkent 2020 y.
13. Абрамова Г.С. Возрастная психология: Учебное пособие для студентов вузов. - М.: Академический Проект, 2000. - 624 с.
14. Абульханова К.А. Стратегия жизни. -М.: Мысль, 1991. С.255.